Dutor sinfi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish

Dildora Ubaydullayevna G‘aybullayeva
Navoiy IMM

Annotatsiya: Ushbu maqolada dutor sinfi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Kasbiy-pedagogik kompetentlik tushunchasining mazmuni, uning ijrochilik, metodik, psixologik-pedagogik, kommunikativ va axborot-texnologik tarkibiy qismlari tahlil qilingan. Malaka oshirish kurslari, uslubiy birlashma mashg‘ulotlari va mahorat darslarida “Keys-stadi”, “Aqliy hujum”, treninglar, o‘zaro dars kuzatish, refleksiya hamda onlayn hamkorlik platformalaridan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Bu texnologiyalar o‘qituvchining dars loyihalash, o‘quvchi bilan samarali muloqot qilish, o‘z faoliyatini tahlil etish va innovatsion usullarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishi asoslab berilgan. Taklif etilgan metodik tavsiyalar dutor ta’limi sifatini sezilarli oshirish va boy milliy ijrochilik an’analarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan izchil uyg‘unlashtirishga samarali xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: dutor sinfi, kasbiy-pedagogik kompetentlik, interfaol ta’lim texnologiyalari, malaka oshirish, uslubiy birlashma, keys-stadi, refleksiya, o‘zaro dars kuzatish, metodik mahorat, milliy ijrochilik an’analari

Using modern interactive learning technologies to develop the professional and pedagogical competence of dutar class teachers

Dildora Ubaydullayevna G‘aybullayeva
Navoi Specialized Music School

Abstract: This article discusses how modern interactive learning technologies can be used to develop the professional and pedagogical competence of dutar class teachers. It analyzes what professional and pedagogical competence involves and identifies its performance, methodological, psychological-pedagogical, communicative and information-technology components. It shows how case studies, brainstorming, training sessions, peer lesson observation, reflection and online

(cc) BY

collaboration platforms can be used in professional development courses, methodological association meetings and master classes. It argues that these technologies develop teachers' skills in lesson design, effective communication with students, analysis of their own work and the use of innovative methods. The proposed methodological recommendations help to significantly improve the quality of dutar teaching and to consistently combine the rich national performance traditions with modern pedagogical approaches.

Keywords: dutar class, professional and pedagogical competence, interactive learning technologies, methodological association, case study, reflection, peer lesson observation, teaching skills, national performance traditions

Dutor sinfida dars berishni boshlagan ilk yillarimni eslasam, o‘sha paytdagi o‘zimni ko‘p narsani bilmagan, lekin hamma narsani bilaman deb o‘ylagan yosh o‘qituvchi sifatida ko‘raman. Men dutorni yaxshi chalardim, konservatoriyada puxta ijrochilik maktabini o‘tgan edim. Shuning uchun yaxshi ijrochi bo‘lsam, yaxshi o‘qituvchi ham bo‘laman, deb ishonardim. Ammo birinchi o‘quv yilining o‘zidayoq bu ishonch silkindi. O‘quvchilarim mening ijromni zavq bilan tinglashardi, lekin o‘zlari chalishga kelganda men ularga nimani, qanday tushuntirishni bilmay qolardim. Ba’zi bolalar darsdan zerikar, ba’zilari esa qo‘rqib, o‘zini yo‘qotib qo‘yardi. Ana shunda men ijrochilik mahorati va pedagogik mahorat bir xil narsa emasligini angladim. Bu maqola o‘sha anglashdan boshlangan uzoq izlanish yo‘limning, hamkasblarim bilan birga olib borgan ishlarimizning mahsulidir.

Dutor o‘zbek xalqining eng qadimiy va eng sevimli cholg‘ularidan biri. Uning ikki tori, uzun dastasi va noksimon kosasi soddagina ko‘rinadi, ammo bu cholg‘u asrlar davomida xalqning quvonchi va qayg‘usini, orzu-umidlari va sog‘inchlarini o‘zida mujassam etib kelgan. Dutor nafaqat yakka cholg‘u sifatida, balki xonandalar jo‘rnavozi, ansambllar va orkestrlar a’zosi sifatida ham keng qo‘llaniladi. Mumtoz maqom ijrochiligidan tortib xalq qo‘shiqlari, dostonlar va zamonaviy asarlargacha dutorning sadosi yangraydi. Turg‘un Alimatov kabi buyuk sozandalar dutor ijrochiligini yuksak san’at darajasiga ko‘tarib, uning cheksiz imkoniyatlarini namoyon etganlar. Bugun ham bu cholg‘uni o‘rganishga qiziquvchi bolalar ko‘p va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish dutor sinfi o‘qituvchilarining zimmasidagi katta mas’uliyatdir.

Bugungi ta’lim tizimida o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Endi o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining rivojlanishini yo‘naltiruvchi, uning qiziqishini uyg‘otuvchi, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi murabbiyga aylanishi kerak. Bu o‘zgarish musiqa ta’limiga ham to‘liq taalluqli. Dutor o‘qituvchisi bir vaqtning o‘zida yuksak mahoratli ijrochi, nozik pedagog, psixolog, tarbiyachi va zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan mutaxassis bo‘lishi talab etiladi. Ammo bu sifatlarning barchasini oliy ta’lim muassasasida to‘liq egallash

(cc) BY

imkonsiz. Ular amaliy faoliyat davomida, doimiy o‘qish va izlanish orqali shakllanadi. Shuning uchun dutor sinfi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish masalasi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogika fanida keng muhokama qilinadi. Uning mohiyati o‘qituvchining pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorligi, bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy sifatlarining uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. I.A.Zimnyaya, A.K.Markova kabi olimlar kasbiy kompetentlik tuzilishini chuqur tahlil qilib, uning turli tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatganlar. Markova, xususan, o‘qituvchi kompetentligining maxsus, ijtimoiy, shaxsiy va individual turlarini ajratgan. O‘zbekiston pedagogikasida ham bu masalaga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Ularda o‘qituvchining kasbiy kompetentligi uning shaxsiy va kasbiy o‘sishining yaxlit ko‘rsatkichi sifatida talqin qilinadi. Ammo musiqa, xususan, xalq cholg‘ulari o‘qituvchilarining kompetentligiga oid maxsus tadqiqotlar hali yetarli emas.

Dutor sinfi o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetentligi o‘ziga xos tuzilishga ega. Mening kuzatishlarim va hamkasblarim bilan olib borgan muhokamalarimiz asosida uning beshta asosiy tarkibiy qismini ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchisi, ijrochilik kompetentligi, ya’ni o‘qituvchining dutorni yuksak darajada chala olishi, turli uslub va janrdagi asarlarni ifodali ijro eta bilishi. Ikkinchisi, metodik kompetentlik, ya’ni dars rejalashtirish, o‘qitish usullarini tanlash, o‘quvchining qiyinchiliklarini aniqlash va bartaraf etish qobiliyati. Uchinchisi, psixologik-pedagogik kompetentlik, ya’ni o‘quvchining yosh va individual xususiyatlarini tushunish, uning motivatsiyasini saqlash. To‘rtinchisi, kommunikativ kompetentlik, ya’ni o‘quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olish. Beshinchisi esa axborot-texnologik kompetentlik, ya’ni zamonaviy raqamli vositalardan ta’lim jarayonida foydalana bilishdir.

Bu tarkibiy qismlar bir-biridan ajralgan holda mavjud emas. Ular o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi. Masalan, ijrochilik mahorati yuqori bo‘lgan, ammo kommunikativ kompetentligi past o‘qituvchi o‘z bilimini o‘quvchiga yetkaza olmaydi. Metodik bilimlarga ega, lekin psixologik jihatdan o‘quvchini tushunmaydigan o‘qituvchi esa bolaning qiziqishini so‘ndirib qo‘yishi mumkin. Mening o‘z tajribamdagi birinchi yillar buning yaqqol misoli edi. Men ijrochi sifatida tayyor edim, ammo metodik va psixologik-pedagogik kompetentligim yetarli emasdi. Bu kamchiliklarni men yillar davomida, ko‘pincha xato qilib, sinab ko‘rib, tajribali hamkasblardan maslahat so‘rab to‘ldirdim. Bugun o‘ylaymanki, agar o‘sha paytda tizimli va samarali kasbiy rivojlanish imkoniyati bo‘lganida, bu yo‘l ancha qisqa va oson bo‘lardi.

(cc) BY

An'anaviy malaka oshirish tizimi uzoq yillar davomida o'qituvchilarni qayta tayyorlashning asosiy shakli bo'lib kelgan. Bu tizimda o'qituvchilar ma'lum muddatda kurslarda o'qib, ma'ruzalar tinglab, sertifikat olishgan. Bu tizimning o'z afzalliklari bor. U o'qituvchilarni yangi nazariy bilimlar, me'yoriy hujjatlar, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar bilan tanishtiradi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, faqat ma'ruza shaklidagi malaka oshirish ko'pincha kutilgan natijani bermaydi. O'qituvchi kursda ko'p narsani eshitadi, lekin uni o'z darsida qanday qo'llashni bilmaydi. Bundan tashqari, umumiy malaka oshirish kurslarida xalq cholg'ulari o'qituvchilarining o'ziga xos ehtiyojlari, masalan, dutor ijrochiligini o'qitish metodikasi kam hisobga olinadi. Natijada kurs tugagach, o'qituvchi yana o'z odatiy usullariga qaytadi.

Ana shu muammo meni va hamkasblarimni o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga yangicha yondashish yo'llarini izlashga undadi. Biz shunday xulosaga keldikki, o'qituvchi ham o'quvchi kabi faol, amaliy va hamkorlikka asoslangan ta'lim orqali yaxshiroq o'rganadi. Agar biz o'quvchilarimizni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishga undayotgan bo'lsak, nega o'zimizning kasbiy rivojlanishimizni ham shunday tashkil etmaymiz? Bu savol bizni interfaol ta'lim texnologiyalariga olib keldi. Interfaol texnologiyalar o'qituvchini kasbiy rivojlanish jarayonining faol subyektiga aylantiradi. U bilimni tayyor holda olmaydi, balki uni hamkasblari bilan muhokama, tahlil, tajriba almashish va amaliy mashq orqali o'zi egallaydi va shu zahotiyoq o'z amaliyotiga tatbiq etadi.

Interfaol ta'lim texnologiyalari deganda ishtirokchilarning bir-biri bilan va o'qituvchi bilan faol o'zaro hamkorligiga asoslangan o'qitish usullari tushuniladi. Kattalar ta'limi, ya'ni andragogika nazariyasi ham kattalar yaxshiroq o'rganadigan sharoitlarni aniqlab bergan. M.Noulz kabi olimlar kattalar o'z tajribasiga tayanib, amaliy muammolarni hal qilish orqali, o'qishning foydasini aniq ko'rgan holda samaraliroq o'rganishini ta'kidlaganlar. Bu tamoyillar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun juda muhim. Dutor o'qituvchisi ko'p yillik tajribaga ega mutaxassis. Uni quruq ma'ruzalar bilan emas, balki o'z tajribasini tahlil qilish, hamkasblari bilan bo'lishish, real pedagogik vaziyatlarni muhokama qilish orqali rivojlantirish samaraliroq. Interfaol texnologiyalar aynan shunday imkoniyatni yaratadi.

Keys-stadi, ya'ni aniq vaziyatlar tahlili usuli o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida juda samarali texnologiyalardan biri. Bu usulda ishtirokchilarga real pedagogik vaziyat taqdim etiladi va ular uni tahlil qilib, yechim izlaydi. Masalan, "O'n yoshli o'quvchi ikki yildan beri dutor chaladi, texnik jihatdan yaxshi rivojlangan, ammo so'nggi paytda darslarga qiziqishi keskin pasaygan, uyda mashq qilmaydi. O'qituvchi nima qilishi kerak?" degan vaziyat ustida ishlash o'qituvchilarni o'quvchi psixologiyasi, motivatsiya, repertuar tanlash, ota-onalar bilan muloqot kabi masalalar haqida chuqur o'ylashga undaydi. Har bir ishtirokchi o'z tajribasidan kelib chiqib, turli

(cc) BY

yechimlar taklif qiladi. Bunday muhokama natijasida har bir o‘qituvchi bir nechta yangi g‘oya bilan o‘z darsiga qaytadi.

Keys-stadi usulining kuchi shundaki, vaziyatlar o‘qituvchilarning o‘z amaliyotidan olinadi. Bizning uslubiy birlashmamizda har bir o‘qituvchi o‘z darsida uchragan qiyin vaziyatni qisqacha yozib keladi. Keyin biz ularni birgalikda tahlil qilamiz. Bu jarayonda men ko‘p narsani angladim. Masalan, ko‘plab o‘qituvchilar bir xil muammolarga duch kelishini, ammo ularni turlicha hal qilishini ko‘rdim. Bir hamkasbimning texnik qiyinchiliklarni yengish usuli boshqasi uchun kashfiyot bo‘ldi. Yosh o‘qituvchilar tajribali ustozlarning maslahatlaridan foydalandi, tajribalilar esa yoshlarning yangicha g‘oyalaridan ilhomlandi. Shu tariqa keys-stadi faqat muammolarni hal qilish usuli emas, balki pedagogik tajribani jamoaviy boyitish vositasiga aylandi.

“Aqliy hujum” texnologiyasi yangi g‘oyalarni izlashda juda qo‘l keladi. Bu usulda ishtirokchilar ma’lum muammo yuzasidan iloji boricha ko‘p g‘oyalarni tanqidsiz, erkin bildiradi, keyin esa ular tahlil qilinib, eng yaxshilari tanlanadi. Masalan, “dutor darsini kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun qanday qilib qiziqarliroq qilish mumkin?” degan savol ustida o‘tkazilgan aqliy hujum bizga o‘nlab qiziqarli g‘oyalar berdi. Ular orasida xalq ertaklari asosidagi musiqiy o‘yinlar, dutor haqida qisqa multfilmlar tomosha qilish, ota-onalar bilan birgalikdagi “oilaviy konsertlar”, o‘quvchilarning o‘zlari kichik kuylar to‘qishi kabi takliflar bor edi. Bu g‘oyalarning ko‘pchiligi keyinchalik amaliyotda sinab ko‘rildi va yaxshi natija berdi.

Trening shaklidagi mashg‘ulotlar o‘qituvchilarning kommunikativ va psixologik-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda samarali. Treninglarda ishtirokchilar turli rollarni bajarib, real vaziyatlarni mashq qiladi. Masalan, “qo‘rqoq o‘quvchi bilan birinchi dars”, “norozi ota-ona bilan suhbat”, “imtihondan oldin hayajonlangan o‘quvchini tinchlantirish” kabi vaziyatlar rolli o‘yin shaklida ijro etiladi. Bir o‘qituvchi o‘quvchi yoki ota-ona rolini, ikkinchisi esa o‘qituvchi rolini bajaradi, qolganlar kuzatib, keyin fikr bildiradi. Bunday mashqlar o‘qituvchiga o‘z muloqot uslubini chetdan ko‘rish, xatolarini anglash va yangi yondashuvlarni xavfsiz muhitda sinab ko‘rish imkonini beradi. Treninglardan keyin ko‘plab hamkasblarim o‘quvchilar va ota-onalar bilan muloqotda ancha ishonchli bo‘lib qolganini aytishdi.

O‘zaro dars kuzatish o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida eng samarali, ammo ayni paytda eng nozik usullardan biri. Ko‘plab o‘qituvchilar o‘z darsiga hamkasbining kirishidan cho‘chiydi, chunki buni nazorat yoki tanqid sifatida qabul qiladi. Shuning uchun biz bu usulni boshidanoq boshqacha tashkil etdik. Dars kuzatish baholash emas, balki o‘zaro o‘rganish maqsadida o‘tkaziladi. Kuzatuvchi o‘qituvchi darsdan keyin faqat ikki savolga javob beradi. Birinchisi, “men bu darsda nimani o‘rgandim?”, ikkinchisi esa “qaysi jihatni boshqacha qilib ko‘rish mumkin?”. Bunday xayrixoh muhitda o‘qituvchilar o‘z darslarini ochiq ko‘rsatishdan qo‘rqmay qolishdi. Har bir

(cc) BY

kuzatuv ham kuzatuvchi, ham kuzatilgan o‘qituvchi uchun yangi bilim va g‘oyalar manbaiga aylandi.

Refleksiya kasbiy rivojlanishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Refleksiya deganda o‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini anglashi, tahlil qilishi va baholashi tushuniladi. D. Shyon kabi olimlar “refleksiv amaliyotchi” tushunchasini ilgari surib, malakali mutaxassis o‘z faoliyati haqida doimiy fikr yuritishi, undan saboq chiqarishi kerakligini ta’kidlaganlar. Dutor o‘qituvchisi uchun refleksiya oddiy shakllarda boshlanishi mumkin. Masalan, har bir darsdan keyin bir necha daqiqa ajratib, “bugun nima yaxshi chiqdi?”, “nimada qiynaldim?”, “keyingi darsda nimani o‘zgartiraman?” degan savollarga javob yozish. Pedagogik kundalik yuritish, o‘z darslarini video yozuvga olib tahlil qilish ham refleksiyaning samarali shakllaridir. Men o‘zim ham bir necha yildan beri pedagogik kundalik yuritaman va bu menga ko‘p narsani anglashga yordam berdi.

O‘z darsini video yozuvga olib tahlil qilish ayniqsa ta’sirli tajriba bo‘ldi. Birinchi marta o‘z darsimni videoda ko‘rganimda hayron qoldim. Men o‘quvchiga gapirish imkonini bermay, o‘zim ko‘p gapirar, uning har bir xatosini darhol tuzatib, unga o‘zi o‘ylashga vaqt qoldirmas ekanman. Darsning katta qismida o‘quvchi faqat tinglab o‘tirgan. Bu kuzatuv mening dars berish uslubimni tubdan o‘zgartirdi. Men ko‘proq savol berishni, o‘quvchiga mustaqil topish imkonini berishni, sabr bilan kutishni o‘rgandim. Keyinchalik bu tajribani uslubiy birlashmadagi hamkasblarimga ham taklif qildim. Ko‘plari ham o‘z darslarini videoda ko‘rib, shunga o‘xshash kashfiyotlar qilishdi.

Onlayn hamkorlik platformalari zamonaviy o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Messenjerlardagi kasbiy guruhlar, video aloqa orqali o‘tkaziladigan onlayn seminarlar, bulutli xizmatlardagi umumiy materiallar bazasi o‘qituvchilarga vaqt va masofadan qat’i nazar doimiy hamkorlik qilish imkonini beradi. Bizning uslubiy birlashmamizda ham shunday guruh tashkil etilgan. Unda o‘qituvchilar foydali materiallar, dars ishlanmalari, notalar, audio va video yozuvlar bilan bo‘lishadi, savollar beradi, bir-biriga maslahat beradi. Boshqa viloyatlardagi dutor o‘qituvchilari bilan onlayn mahorat darslari, tajriba almashish uchrashuvlari o‘tkazish ham imkoniyatlarimizni sezilarli kengaytirdi. Ilgari faqat poytaxtdagi seminarlarda eshitish mumkin bo‘lgan mutaxassislarning fikrlari endi bizga ancha yaqin bo‘lib qoldi.

Axborot-texnologik kompetentlik bugungi dutor o‘qituvchisi uchun zarur sifatga aylandi. O‘qituvchi audio va video yozuvlardan darsda foydalanish, o‘quvchining ijrosini yozib olib tahlil qilish, raqamli metronom va tyunerdan foydalanish, nota muharriri dasturlarida notalar tayyorlash, onlayn darslar o‘tkazish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Ammo ko‘plab tajribali o‘qituvchilar bu ko‘nikmalarni egallashda qiynaladi. Ularga yosh hamkasblar yordam berishi mumkin. Bizning birlashmada “bir-

(cc) BY

biridan o‘rganamiz” degan tamoyil asosida shunday mashg‘ulotlar tashkil etilgan. Yosh o‘qituvchilar katta hamkasblariga raqamli vositalardan foydalanishni o‘rgatadi, tajribali o‘qituvchilar esa yoshlarga ijrochilik va metodik sirlarni ochib beradi. Bunday o‘zaro murabbiylik ikki tomon uchun ham foydali bo‘lib chiqdi.

Mahorat darslari ham kasbiy rivojlanishning muhim shakli. An’anaviy mahorat darslarida ustoz o‘quvchi bilan ishlaydi, qolganlar esa kuzatadi. Interfaol yondashuvda esa mahorat darsi ancha boy mazmunga ega bo‘ladi. Ustozning ishi kuzatilgandan so‘ng ishtirokchilar savollar beradi, ko‘rgan usullarini muhokama qiladi, ularni o‘z amaliyotida qanday qo‘llash mumkinligini birgalikda o‘ylaydi. Ba’zan ishtirokchilarning o‘zlari ham ustozning nazorati ostida o‘quvchi bilan ishlab ko‘radi. Bunday mahorat darslari o‘qituvchiga yangi usullarni nafaqat ko‘rish, balki ularni darhol sinab ko‘rish imkonini beradi. Ayniqsa tajribali dutor ustozlarining mahorat darslari yosh o‘qituvchilar uchun beqiyos maktab hisoblanadi.

Shu bilan birga, interfaol texnologiyalarni o‘qituvchilar ta’limiga joriy etishda ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Birinchidan, o‘qituvchilarning ish yuklamasi katta, ularda qo‘shimcha mashg‘ulotlar uchun vaqt kam. Ikkinchidan, ba’zi o‘qituvchilar yangi usullarga ishonchsizlik bilan qaraydi, o‘z odatiy uslubidan voz kechishni istamaydi. Uchinchidan, ochiq muhokama va o‘zaro dars kuzatish ba’zan noqulaylik tug‘diradi, o‘qituvchilar tanqiddan qo‘rqadi. To‘rtinchidan, ayrim maktablarda raqamli vositalar bilan ta’minlanganlik darajasi hali yetarli emas. Bu qiyinchiliklarni yengish uchun interfaol mashg‘ulotlarni qisqa, amaliy va o‘qituvchilarning real ehtiyojlariga mos tarzda tashkil etish, xayrixoh va ishonchli muhit yaratish, maktab rahbariyatining qo‘llab-quvvatlashini ta’minlash zarur.

Uslubiy birlashmaning roli bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Uslubiy birlashma o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun eng yaqin va eng qulay maydon. U yerda o‘qituvchilar bir-birini yaxshi biladi, bir xil sharoitda ishlaydi, umumiy muammolarga duch keladi. Shuning uchun interfaol texnologiyalarni avvalo uslubiy birlashma mashg‘ulotlariga joriy etish maqsadga muvofiq. Afsuski, ko‘plab uslubiy birlashmalarda mashg‘ulotlar hali ham rasmiy tarzda, hisobot va ma’ruzalar shaklida o‘tadi. Ularni jonli, interfaol, amaliy muhokamalarga aylantirish o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishiga katta turtki beradi. Bizning tajribamiz shuni ko‘rsatdiki, mashg‘ulotlar interfaol tus olganidan so‘ng o‘qituvchilarning ularga munosabati ham tubdan o‘zgardi.

O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi oxir-oqibat o‘quvchilarning muvaffaqiyatida namoyon bo‘ladi. Kompetentligi yuqori o‘qituvchi o‘quvchining qiziqishini uzoq yillar saqlab qoladi, uning individual xususiyatlarini hisobga olib ishlaydi, texnik qiyinchiliklarni tez va to‘g‘ri bartaraf etadi, uni milliy musiqa merosiga mehr ruhida tarbiyalaydi. Bunday o‘qituvchining o‘quvchilari ko‘rik-tanlovlarda yuqori natijalar ko‘rsatadi, musiqa ta’limini davom ettiradi, ko‘pincha o‘zlari ham o‘qituvchi bo‘lib

(cc) BY

yetishadi. Shuning uchun o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga sarflangan har bir kuch, aslida, kelajak avlodning musiqiy tarbiyasiga qo‘yilgan sarmoyadir.

Ijrochilik kompetentligini saqlash va rivojlantirish ham o‘qituvchi uchun doimiy vazifa bo‘lib qoladi. Ko‘plab o‘qituvchilar dars yuklamasi ortidan o‘z ijrochilik mahoratiga yetarli vaqt ajrata olmaydi va yillar o‘tib cholg‘uni ilgarigidek erkin chalolmay qoladi. Holbuki, o‘quvchi uchun ustozning jonli, ilhomli ijrosi eng kuchli rag‘batdir. Shu sababli uslubiy birlashmalarda o‘qituvchilar ansambli, o‘zaro konsertlar, yangi repertuar ustida birgalikda ishlash kabi tadbirlarni tashkil etish ham kasbiy rivojlanishning muhim qismi hisoblanadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Maqolaning maqsadi dutor sinfi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslarini yoritish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun mavzuga oid pedagogik, psixologik va andragogik adabiyotlarni tahlil qilish, dutor o‘qituvchisi kompetentligining tarkibiy qismlarini aniqlash, kasbiy rivojlanishning an’anaviy shakllarini tahlil qilish, interfaol texnologiyalarni uslubiy birlashma, malaka oshirish va mahorat darslari faoliyatiga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatish hamda ularning samaradorligini amaliyotda kuzatish vazifalari belgilandi. Tadqiqotda kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti xalq cholg‘ulari o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanish jarayoni, predmeti esa dutor sinfi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini interfaol ta’lim texnologiyalari vositasida rivojlantirish yo‘llaridir. Ishning yangiligi shundaki, unda dutor o‘qituvchisi kompetentligining tarkibiy qismlari aniqlashtirilib, ularning har birini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol texnologiyalar tizimi taklif etiladi. Shuningdek, uslubiy birlashma faoliyatini interfaol shaklda tashkil etishning amaliy tajribasi umumlashtiriladi. Tadqiqot natijalaridan bolalar musiqa va san’at maktablari hamda ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarining xalq cholg‘ulari o‘qituvchilari, uslubiy birlashma rahbarlari va malaka oshirish tizimi mutaxassislari foydalanishlari mumkin.

Shunday qilib, dutor sinfi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish masalasi bugungi ta’lim talablari nuqtai nazaridan ham, milliy musiqa merosini saqlash nuqtai nazaridan ham nihoyatda dolzarb. Yaxshi ijrochi bo‘lish hali yaxshi o‘qituvchi bo‘lish degani emas. Pedagogik mahorat doimiy o‘qish, izlanish va hamkorlik orqali shakllanadi. Quyida o‘z tajribam va uslubiy birlashmamizdagi hamkasblarim bilan olib borgan ishlarimiz asosida interfaol texnologiyalarni qo‘llash tajribasini va erishilgan natijalarni bayon etaman.

Tadqiqotning amaliy qismi uslubiy birlashmamizdagi dutor sinfi o‘qituvchilari bilan bir o‘quv yili davomida olib borildi. Boshida o‘tkazilgan so‘rovnoma va suhbatlar

(cc) BY

qiziq manzarani ko‘rsatdi. Hamkasblarimizning aksariyati ijrochilik kompetentligini yuqori baholagan bo‘lsa-da, o‘quvchi motivatsiyasini saqlash, ota-onalar bilan muloqot va raqamli vositalardan foydalanishda qiyinchilik sezishini tan oldi. Uslubiy birlashma mashg‘ulotlarini esa ko‘pchilik rasmiy va kam foydali deb hisoblardi.

Shundan so‘ng mashg‘ulotlar tubdan qayta tuzildi. Har oy o‘tkaziladigan yig‘ilish hisobot o‘rniga amaliy ustaxonaga aylantirildi. Har bir mashg‘ulotda o‘qituvchilarning o‘z amaliyotidan olingan bitta keys tahlil qilindi, biror muammo bo‘yicha aqliy hujum o‘tkazildi, chorakda bir marta muloqotga oid trening tashkil etildi. O‘zaro dars kuzatish “nimani o‘rgandim” va “nimani boshqacha qilish mumkin” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yildi. Har bir o‘qituvchi kamida ikki darsini video yozuvga olib, o‘zi tahlil qildi. Onlayn guruhda esa materiallar almashish va boshqa viloyatlar hamkasblari bilan onlayn uchrashuvlar muntazam davom etdi.

Albatta, jarayon oson kechmadi. Dastlabki oylarda ayrim tajribali hamkasblarimiz o‘zaro dars kuzatishga ishtiyoqsiz qarashdi, video yozuvga olishdan tortinishdi. Biz ularni majburlamadik. Avval men o‘zim darsimni ochiq ko‘rsatdim, videomni hamkasblar bilan birga tahlil qildim va o‘z xatolarimni ochiq tan oldim. Bu ochiqlik muhitni yumshatdi. Bir-ikki oydan so‘ng eng ehtiyotkor hamkasblarimiz ham o‘z darslarini ko‘rsatishga rozi bo‘lishdi. Bu tajriba menga interfaol ta’limda ishonch muhiti har qanday texnologiyadan muhimroq ekanini ko‘rsatdi.

Yil oxiridagi takroriy so‘rovnoma va kuzatuvlar sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi darslarida ko‘proq savol berish, o‘quvchiga mustaqil izlanish imkonini qoldirish usullarini qo‘llay boshladi. Ota-onalar bilan muloqotda o‘zini ishonchliroq his qilayotganini aytdi. Raqamli vositalardan, ayniqsa o‘quvchi ijrosini yozib olib tahlil qilishdan foydalanadigan o‘qituvchilar soni ancha ko‘paydi. Uslubiy birlashma mashg‘ulotlariga munosabat ham o‘zgardi. Hamkasblarimiz ularni endi majburiyat emas, balki kutib olinadigan foydali uchrashuv deb bila boshladi.

Eng quvonarlisi, o‘qituvchilardagi bu o‘zgarishlar o‘quvchilarda ham aks etdi. Darslarga qiziqish ortgani, uyda mashq qiladigan bolalar ko‘paygani, ota-onalarning o‘qituvchilar bilan aloqasi yaqinlashgani kuzatildi. Bu esa o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchi muvaffaqiyatiga aylanishini yana bir bor tasdiqladi.

Olib borilgan tadqiqot dutor sinfi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy interfaol ta’lim texnologiyalari samarali vosita ekanini tasdiqladi. Yaxshi ijrochi bo‘lish hali yaxshi o‘qituvchi bo‘lish degani emas. Dutor o‘qituvchisining kompetentligi ijrochilik, metodik, psixologik-pedagogik, kommunikativ va axborot-texnologik tarkibiy qismlardan iborat yaxlit tizim bo‘lib, ularning barchasi uzluksiz va muvozanatli rivojlanishni talab qiladi.

Faqat ma’ruza shaklidagi an’anaviy malaka oshirish o‘qituvchining real ehtiyojlariga har doim ham javob bermaydi. Kattalar o‘z tajribasiga tayanib, amaliy

(cc) BY

muammolarni hal qilish va hamkasblar bilan hamkorlik orqali yaxshiroq o‘rganadi. Keys-stadi, aqliy hujum, treninglar, o‘zaro dars kuzatish, refleksiya va onlayn hamkorlik aynan shunday imkoniyat yaratadi. Ularning har biri kompetentlikning muayyan qismini rivojlantiradi. Keys-stadi metodik va psixologik tayyorgarlikni, treninglar muloqot ko‘nikmalarini, video tahlil va refleksiya o‘z faoliyatini tanqidiy baholash qobiliyatini, onlayn platformalar esa axborot-texnologik kompetentlikni kuchaytiradi.

Tadqiqot uslubiy birlashma o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun eng qulay maydon ekanini ham ko‘rsatdi. Mashg‘ulotlar rasmiy hisobotlardan amaliy ustaxonaga aylantirilganda o‘qituvchilarning ularga munosabati tubdan o‘zgaradi. Bunda eng muhim shart xayrixoh va ishonchli muhitdir. O‘zaro dars kuzatish baholash emas, balki birgalikda o‘rganish vositasi sifatida tashkil etilishi, tajribali va yosh o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro murabbiylik yo‘lga qo‘yilishi lozim. Rahbarning shaxsiy namunasi va ochiqligi bu muhitni yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O‘qituvchilarga uslubiy birlashma mashg‘ulotlarini keys tahlili va amaliy muhokamalar asosida o‘tkazish, o‘zaro dars kuzatishni muntazam yo‘lga qo‘yish, o‘z darslarini vaqti-vaqti bilan video yozuvga olib tahlil qilish va pedagogik kundalik yuritish tavsiya etiladi. Malaka oshirish kurslarida esa xalq cholg‘ulari o‘qituvchilari uchun maxsus interfaol modullar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu yondashuvni boshqa xalq cholg‘ulari sinflari o‘qituvchilariga tatbiq etish va kengroq tadqiqotlar asosida takomillashtirish istiqbolli ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidiy, Said Boltazoda. Влияние музыки на человека. Academy 4 (4), 63-65

2. Saidiy, Said Boltazoda. Теория магнитных эффектов других голосов многоголосной музыки. Science and Education 4 (1), 577-582

3. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Модуляционные эффекты музыкального произведения. Science and Education, 4 (1), 563-569.

4. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Особенности эффекта системы тяготения аккордов в музыке. Science and Education, 4 (1), 590-596.

5. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Взаимное влияние тоники, субдоминанты и доминанты. Science and Education, 4 (1), 570-576.

6. Болта-Зода, С. С. (2022). Особенность мгновенного появления вторичного аккорда, органный пункт. Science and Education, 3(12), 885-891.

7. Расулова, Д. Ш. К., & Болтазода, С. С. (2022). Национальные инструменты Узбекистана. История музыкальных инструментов: дутар и уд. Science and Education, 3(3), 858-864.

8. Салимова, Б. Б. К., & Болтазода, С. С. (2022). Музыка как дискурс управления многоголосной музыки. Science and Education, 3(3), 845-850.

9. Халимов, Ш. Ш. Ў., & Болтазода, С. С. (2022). Некоторые аспекты формирования и развития музыкального воздействий с ее последствиями на развитии ребёнка. Science and Education, 3(3), 837-844.

10. Болта-Зода, С. С. (2022). Взаимодействие теории и гармонии музыки. Science and Education, 3(12), 851-856.

11. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Влияние внутри тяготеющих звуков аккорда. Science and Education, 4 (1), 583-589.

12. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Эффекты модуляции и отклонении музыки. Science and Education, 4 (1), 550-555.

13. Болта-Зода, С. С. (2022). Теоретические основы построения музыки. Science and Education, 3(12), 844-850.

14. Ропиева, Д. А. Қ., & Болтазода, С. С. (2022). Вокально-хоровые песни, обработка народных песен и развития мастерства учащихся. Science and Education, 3(4), 1200-1205.

15. Болтазода, С. С. (2022). Оценка характеристик волнообразных голосов в хоровом пении. Science and Education, 3(3), 865-871.

16. Саидий, С. (2019). Влияние музыки на личность и психику ребёнка. Вестник интегративной психологии, (19), 217-220.

17. Болта-Зода, С. С. (2022). Полифонический кондукт к строфической форме в музыке. Science and Education, 3(12), 837-843.

18. Саидий, С. Б. Продвижение новых принципов творческого фортепианного исполнительства в профильных школах искусств и культуры. Science and education. Scientific Journal, 4(3), 1612-1617.

19. Ропиева, Д. А. К., & Болтазода, С. С. (2022). Технологии формирования и развития вокально-хорового мастерства учащихся через народные песни. Science and Education, 3(3), 831-836.

20. Рустамов, А. Р. О., & Болтазода, С. С. (2022). Способы обогащения уроков игры на фортепиано передовым зарубежным опытом. Science and Education, 3(3), 904-910.

21. Қувватова, Н. Б. Қ., & Саидий, С. Б. З. (2022). Основные направления и тенденции развития будущих учителей по направление музыки. Science and Education, 3(8), 204-210.

22. Мухаммадиева, Р. У., & Болтазода, С. С. (2022). Основы современного педагогического творчества по сфере хора. Дирижёр как оптимально управляющий голосом хора в музыкальном театре. Science and Education, 3(3), 918-923.

23. Комил Буронович Холиков (2024). Вспомогательные клетки нервной ткани и действия периферических нервов в Шванновском клетке. Science and Education, 5 (12), 99-104.

24. Комил Буронович Холиков (2024). Специальные приёмы обучение изучения обмена калия и натрия в пороге мембраны Шванье. Science and Education, 5 (12), 69-74.

25. Комил Буронович Холиков (2025). Поликомилойиды генератор музыкального воспроизводимости пианиста в психофизиологии. Science and Education, 6 (1), 134-141.

26. Болта-Зода, С. С. (2022). Определения понятий диктанта в теории музыки. Science and Education, 3(12), 823-828.

27. Алиев, Б. Т. У., & Саидий, С. Б. (2022). Простые, сложные и смешанные размеры музыки при проведении уроков дирижирования, креативные методы обучения. Science and Education, 3(5), 1484-1492.

28. Рустамов, А. Р. О., & Болтазода, С. С. (2022). Методы и приёмы обучения игры на фортепиано. Science and Education, 3(3), 911-917.

29. Наргиза Бахтиёр Қизи Қувватова, & Саидий Саид Болтазода (2023). Современные методы работы с детьми, не имеющими музыкального образования. Science and Education, 4 (2), 1248-1255.

30. Эрназарова, А. Ф. Қ., & Саидий, С. Б. (2022). Методики обучения народным музыкальным ладам учащихся музыкальных школах и школ искусств. Science and Education, 3(11), 1021-1026.